Korxonalarda pul mablag'lari auditini takomillashtirish yo'llari.....	1005
Karamatova Noiba Xusniddinovna	
Hududlarda inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	1010
Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li, Ibragimov Behruz Ravshan o'g'li	
Yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikning muhim omilidir	1014
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
Pardayeva Shahnoza Abidinabiyevna	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1022
Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SAMARQAND VILOYATIDA ISTE'MOL TOVARLAR BOZORINING RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Usmanov Zayniddin Berdirasulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Real" iqtisodiyot kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada iste'mol tovarlari bozorni va uning asosiy xususiyatlari, rivojlantirish omillari o'rganilgan. Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari bozorining umumiy holati va rivojlantirish yo'llarini statistik tahlil qilinib, asosiy muammolari aniqlangan. Iste'mol tovarlari bozorini rivojlantirish yo'llarini aniqlash va asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iste'mol tovari, iste'mol tovarlari bozori, raqobat, kon'yunktura, oziq-ovqat, nooziq-ovqat, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlari, chakana savdo, ulgurji savdo, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Abstract: The article examines the consumer goods market and its main features, development factors. Statistical analysis of the general situation and ways of development of the consumer goods market in Samarkand region identified the main problems. Scientific proposals and practical recommendations have been developed to identify ways to develop the consumer goods market and its main directions.

Key words: consumer goods, consumer goods market, competition, conjuncture, food, non-food, population incomes, consumer spending, retail, wholesale, consumer goods production.

Аннотация: В статье исследуется рынок товаров народного потребления и его основные особенности, факторы развития. Статистический анализ общего состояния рынка потребительских товаров самаркандской области и путей развития, выявлены основные проблемы. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по определению путей развития рынка товаров народного потребления и его основных направлений.

Ключевые слова: товары народного потребления, рынок потребительских товаров, товары народного потребления, рынок конкуренция, конъюнктура, продукты питания, непродовольственные товары, доходы населения, потребительские расходы, розничная торговля, оптовая торговля, производство товаров народного потребления.

KIRISH

Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois iste'mol tovarlari bozorini shakllantirish va uning rivojlanishi bo'yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi hududiy iste'mol tovarlari bozorining turli darajada va holatda shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va hududlardagi aholi farovonligining asosi hisoblanadi. Shu bois iste'mol bozorini yanada shakllantirish va uning rivojlanishi bo'yicha muammolarga jiddiy yondashuv talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi tanikli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov, Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. SHarifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R. Boltaboyev, D. Ergashxodjayeva va boshqalarni kiritish mumkin.



Iste'mol tovarlari bozori aholining shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi va hayot kechirish uchun uy-ro'zg'orini jihozlash maqsadida xarid qilinuvchi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini oldi-sotdi munosabatlari majmuyini o'z ichiga oladi. Iste'mol tovarlari bozori o'z navbatida maxsus bozorlarga: oziq-ovqat, kiyim-kechak, xo'jalik, madaniy mollar va boshqalarga bo'linadi. Bu bozorning moddiy-texnika asosi infrastrukturasi bo'lib: ulgurji savdo bazalari, do'konlar, oshxona, choyxona, dorixona, dehqon bozorlari va barcha chakana savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi shoxobchalar hisoblanadi.

Iste'mol tovarlari quyidagilarga ajratiladi: oziq-ovqat tovarlari, nooziq-ovqat tovarlari hamda pulli xizmatlar. Bular o'z navbatida kichik guruhlariga ham ajratiladi. Iste'mol tovarlari ichida nooziq-ovqat tovarlari turi ko'p (ular kimga mo'ljallangani, qaysi ehtiyojni qondirishi, iste'mol etishga qulaylik yaratishga qarab xilma xil bo'ladi va individual did hamda modani nazarda tutadi). Xizmatlardan iborat iste'mol tovarlarini shartli ravishda, madaniy, maishiy va ijtimoiy xizmatlar kabi turlarga ajratish mumkin. Samarali talab ikki omillar guruhiga, ya'ni iste'mol tovarlari bozori va ishlab chiqarish vositalari bozoriga bog'liq. Iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish vositalariga talabning ortishi taklifning o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, o'sib boruvchi taklif bandlik ortishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat hududlari bozorlarida aholining ortib borayotgan to'lov qobiliyati bilan taklif etilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, mahsulotlar turini kengaytirish, import tovarlaridan sifati yuqori, narxi arzon bo'lgan mahalliy tovarlar ishlab chiqarish, iste'molchilarning o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish bo'yicha tadqiqot olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqalarda iste'mol tovarlari bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi xorijiy investitsiyalar oqimini oshirib borish hisobiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohasining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilarini barpo etish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilik rivojlanishini rag'batlantirib borish; go'sht, sut va tuxum mahsulotlari manbasi hisoblangan chorvachilik va parrandachilik hamda baliqchilikni rivojlantirish; jahon standartlariga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish; tijorat banklari kredit faoliyatini yanada takomillashtirish; mavjud qazilma boyliklardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda ish olib borilishi maqsadga muvofiq.

1-jadval: Iste'mol tovarlari turkumini tashkil etuvchi tovarlar tarkibi

Iste'mol tovarlari turkumi			
Kundalik iste'mol tovarlari	Dastlabki tanlov asosida olinadigan tovarlar	Alohida talabdagi tovarlar	Passiv talabdagi tovarlar
a) domiy talabdagi asosiy tovarlar b) impulsiv tarzda sotib olinadigan tovarlar d) favqulodda holatlar uchun tovarlar	a) o'xshash tovarlar b) alohida ko'rinishdagi tovarlar	Xaridorlar uchun o'ta qadrlil sanalayotgan, o'ta nafuzli mashxur firmalar tovari bo'lib, ular uchun xaridor tayinli vaqt va harakatlarni ayamaydi	Xaridorlarga notanish yoki ular xususida juda kam o'ylaydigan tovarlardan tarkib topadi

Manba: Golubkov Ye. P. Osnovy marketinga: uchebnik.-M.: Finpress, 2008.-205 b

Ko'pgina hollarda kundalik iste'mol tovarlari guruhiga faqat oziq-ovqat mahsulotlarini kiritish, bizning mamlakatimiz aholisi uchun ko'nikma bo'lib qolgan. Chunki dastlabki ma'muriy iqtisodiyot tizimidagi keng ko'lamdagi ixtisoslashuv bevosita sanoat iste'mol bozorida ham takrorlanar edi.

Viloyatda chakana va ulgurji savdoni tashkiliy tuzilishi va norasmiy savdo bilan shug'ullanayotgan, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tarqoq holda joylashganligi tadbirkorlarning faoliyat olib borishi savdoni zamon talablari darajasida rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xufyona yo'llar bilan kiritilgan mahsulotlarni nisbatan arzon narxlarda sotilishi, chakana savdoni nazorat qilinmasligi natijalari, bu sohada raqobat muhitini shakllantirishga yo'l qo'ymayapti. Tahlil natijalariga ko'ra Samarqand viloyatdagi savdo xizmatlarini ko'rsatadigan tadbirkorlarning madaniyatini oshirish zarur, tovarlar assortimentini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, transport xarajatlarini yanada kamaytirish va savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash mexanizmini ishlab chiqish kerak.

Tovar deb ma'lum bir ehtiyojni qondirish maqsadida bozorga sotib olish, foydalanish va iste'mol qilish uchun taklif etilayotgan mahsulot tushuniladi. Mahsulotga narx belgilanishi va bozorga taklif etilishi bilan oq tovarga aylanadi.

Iste'mol tovarlar bozorini rivojlantirish ulgurji va chakana savdo bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.



Chakana savdo aholiga to'g'ridan-to'g'ri tovar sotish va xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini o'z ichiga oladi. Chakana savdo tovarlar assortimentining shakllanishida qatnashadi, xaridorlarga tovarlar sifat ko'rsatkichlari to'g'risida axborotlar beradi, tovarlarni saqlash, qo'shimcha ishlash, baholarini o'rnatish va boshqa vazifalarni bajaradi.




2010 yil 2011 yil 2012 yil 2013 yil 2014 yil 2015 yil 2016 yil
2017 yil 2018 yil 2019 yil 2020 yil 2021 yil 2022 yil

1-rasm: Samarqand viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (amaldagi narxlarda: mln so'm)

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki samarqand viloyatida chakana tovar aylanmasi yil sayin ko'tarilib borganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 2022-yildagi chakana tovar aylanmasi 2010-yildagi chakana tovar aylanmasiga nisbatan 15 borabarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududiy iste'mol tovarlari bozori – o'zaro bog'liqlikdagi turli xil ayriboshlash institutlaridan iborat bo'lgan murakkab tizimdir. Biroq uning har bir ishtirokchisi o'z manfaatlariga ega. Ishlab chiqaruvchilar sarf qilingan mablag'ni qaytarib olish va daromad ko'rishga urinadi, iste'molchilar esa ehtiyojlarni optimal qondirishga intiladi. Hududiy iste'mol tovarlar bozorining shakllanishi va amal qilish mexanizmi mazkur hududdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash hamda iste'mol qilish jarayonlari va omillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, iste'mol tovarlari inson ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste'mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlardan iborat. Iste'mol tovarlari shaxsiy iste'molni qondiradi, investitsiya tovarlaridan inson tirikchiligini ta'minlashi bilan farqlanadi, mehnat resurslarini qaytadan hosil etilishiga sharoit hozirlaydi.



2-rasm: Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha 2022-yildagi chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan foizda)




2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2022-yilda samarqand viloyatidagi tumanlar bo'yicha chakana tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati eng past bo'lgan tuman oqdaryo tumani bo'lgan bo'lsa ya'ni 101,3 foiz, eng yuqori bo'lgan tuman samarqand shaharni 128,4 foizni ko'rishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlari bozorini mohiyatini yanada yaxshiroq tushunish uchun iste'mol tovari tushunchasini izohlash lozim.

Ulgurji savdo ishlab chiqaruvchi va iste'molchi chakana savdo va tovarni oxirgi iste'molchilari o'rtasidagi umumlashgan vositachi hisoblanadi. Ulgurji savdo firmalari tovarni ishlab chiqaruvchi yoki boshqa vositachilardan ulgurjisiga sotib olib, o'zining vazifalariga muvofiq boshqa vositachilar; chakana savdo korxonalari yoki xususiy savdo tadbirkorlariga, ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchilarga yetkazib beradi.

Iste'mol tovarlar bozorni harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri va uning tarkibiy qismi – talab hisoblanadi.

Iste'mol tovarlar – bu bevosita insonlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan eng zarur tovarlardir. Hududda iste'mol tovarlari bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni zamon talablari darajasida modernizatsiyalashga xizmat qiluvchi iqtisodiy tashkiliy, investitsiya bazasini mustahkamlash zarur. Viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan kichik korxonalarni tashkil etish orqali meva, sabzavotlar va go'sht-sut konservalari, sariyog', pishloq, konditerlik mahsulotlari, makaron va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi oziq-ovqat sanoatini modernizatsiyalash ijobiy natijalar beradi.



3-rasm: Samarqand viloyati ulgurji savdo tovar aylanmasi (jami mlrd so'm)

Samarqand viloyatida 2010-yildan 2022-yilgacha ulgurji savdo tovar aylanmasini ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 16,6 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi yil sayin oshib borayotganligini va samarqand viloyatida ulgurchi tovar aylanmasi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlar bozori shahar, viloyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi va barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlarining manbayi hisoblanadi; ichki, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlardan ta'sirlanishi, ya'ni hududlararo tovarlar oqimi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar mavjud; iste'mol tovarlar bozorining asosiy subyektlari hisoblangan chakana savdo korxonalari, tovarlarni tashish, ularni saqlashni ta'minlab beruvchi tashkilotlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanib borish strategiyalarini ishlab chiqish. Umuman olganda iste'mol tovarlari bozorini tartibga solish va takomillashtirish orqali tovarlar bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2021-yil.
2. B. Abdukarimov "Ichki savdo iqtisodiyoti" darslik 1-qism Toshkent 2007-y.
3. Abdurashidov A. Iste'mol tovarlari bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. -T.: 2012-yil
4. Потребительский рынок города: состояние и перспективы: монография / кол. авт. под рук. – Т. В. Усковой. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2012.
5. Новикова, Н. В. Понятийно-терминологический аппарат исследования локального потребительского рынка // Муниципалитет: экономика и управление. – 2012.
6. Гурьянов, Т. И. Совершенствование методики оценки состояния потребительского рынка // Журнал "Казанская наука". – 2012.
7. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. – Samarqand-2023
8. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.